

EHTIYOJLAR VA MOTIV TIZIMI**O'ktamova Dilnavo Hakim qizi****Chirchiq davlat pedagogika universiteti****Maktabgacha va Boshlang'ich ta'lim fakulteti****Boshlang'ich ta'lim yo'nalishning 1- kurs talabasi****oktamovadilnavo@gmail.com****Ozodqulov Olimjon Bahodir o'g'li****Chirchiq davlat pedagogika universiteti****Psixologiya kafedra o'qituvchisi****Ilmiy rahbar: olimjonozodqulov30@gmail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.17828401>**

Annotatsiya: Ushbu tezisda inson shaxsining psixologik tuzilishi va uning faolligi ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Faoliyatning mazmuni, tarkibi va turlari jamiyatdagi ijtimoiy tajriba bilan bog'liq holda yoritilib, undagi ichki harakatlanuvchi kuchlar sifatida ehtiyojlar va motivlarning ahamiyati yoritilgan. Ehtiyoj va motiv tizimi shaxsning maqsad qo'yishi, qaror qabul qilishi, xulq-atvorni boshqarishi hamda samarali faoliyat yuritishi markaziy omil ekani ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: shaxs-son, motivatsiya, ehtiyojlar, faoliyat turlari, ichki faoliyat, tashqi faoliyat.

Annotation: This thesis scientifically analyzes the psychological structure of personality and its activity. The content, structure, and types of activity are examined in relation to social experience, emphasizing the importance of needs and motives internal driving forces. The study demonstrates that the system of needs and motives plays a central role in goal setting, decision-making, behavioral regulation, and effective human activity.

Keywords: personality, motivation, needs, types of activity, internal activity, external activity.

KIRISH:

Shaxs insonning jamiyatda tutgan o'rni, o'zini anglash darajasi va maqsadga yo'naltirilgan faoliyati avvalo uning shaxs sifatida shakllanganlik darajasiga bog'liq. Shaxsning faolligi tasodifiy emas, balki ichki psixologik omillar, ya'ni ehtiyojlar va motivlar bilan boshqariladi. Ehtiyojlar insonning mavjudlikni saqlash, rivojlanish va

ijtimoiy moslashuvga bo'lgan tabiiy talablarini ifodalaydi, motivlar esa ushbu ehtiyojlarni qondirishga yo'naltirilgan ongli harakatlarning mazmuniy asosini tashkil etadi. Shu bois, ehtiyoj-motiv tizimi inson faoliyatining boshlang'ich manbayi, uni rag'batlantiruvchi hamda yo'naltiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur mavzuning o'rganilishi shaxs rivoji, ta'lim-tarbiya jarayoni, mehnat samaradorligi va ijtimoiy munosabatlarni tushunishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Ehtiyoj va motivlarning psixologik mohiyatini tahlil qilish inson xulq-atvori dinamikasini chuqurroq anglash, maqsadli faoliyatni tashkil etish hamda samarali motivatsion muhit yaratishga xizmat qiladi. Ehtiyojlar - organizim, inson shaxsi, ijtimoiy guruh, umuman jamiyatning hayot faoliyatini saqlab turish uchun zarur bo'lgan narsalarga talab, muhtojlik. Nazariy va amaliy iqtisodiyotning fundamental kategoriyalaridan biri. Ehtiyojlar sub'yekt bilan uning faoliyati o'rtasidagi bog'lanishlarni ifoda etadi va maqsadlar, mayllar, intilishlarda va pirovardida hatti - harakatlar, fe'l atvorda yuzaga chiqadi. Faoliyat sohasiga qarab: mehnatga, bilimga, muloqotlarga; ob'yektiga qarab: moddiy, ma'naviy; sub'yektiga ko'ra yakka (shaxsiy),

guruhiy, jamoaviy, ijtimoiy ehtiyojlar bo'lishi mumkin. Ehtiyojlarning umumiy qonuniyati - ularning umuman bevosita inson faoliyatiga, xususan, ijtimoiy ishlab chiqarishga bog'liq bo'lishidir. Ayni payda faollikka undovchi kuch bo'lgan ehtiyojlar, o'z navbatida, hayot sharoitlariga tanlama ta'sir ko'rsatadi, ularning o'ziga xos tomonlarini belgilaydi, u yoki bu faoliyat usullarini va ehtiyojlarni qondiradigan predmetlar ishlab chiqarishni rag'batlantiradi. Masalan, bir vaqtlar kishilarda avtomobilga paydo bo'lgan ehtiyojlar ularni yaratish yo'lida izlanishlarning boshlanishiga sabab bo'ldi, butun bir sanoat tarmog'ining paydo bo'lishiga olib keldi.

Motivasiya - inson xulq-atvori, uning bog'lanishi, yo'nalishi va 2 faolligini tushuntirib beruvchi psixologik sabablarni bildiradi. Bu tushuncha u yoki bu shaxs xulqini tushuntirib berish kerak bo'lganda ishlatiladi, ya'ni nega?, nima uchun?, nima maqsadda?, qanday manfaat yo'lida? degan savollarga javob qidirish - motivasiyani qidirish demakdir. Demak, u xulqning motivasion tasnifini yoritishga olib keladi. Shaxsning jamiyatda odamlar orasidagi xulqi va o'zini tutishi sabablarini o'rganish tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan narsa bo'lib, masalani yoritishning ikki jihati farqlanadi: Ichki sabablar, ya'ni xatti-harakat egasining subyektiv psixologik xususiyatlari nazarda tutiladi (motivlar, ehtiyojlar, maqsadlar, mo'ljallar, istaklar, qiziqishlar va hokazolar). Tashqi sabablar - faoliyatning tashqi shart-sharoitlari va holatlari. Ya'ni, bular ayni konkret holatlarni kelib chiqishiga sabab bo'ladigan tashqi stimullardir. Motivlar turlari - insoni harakatga keltiradigan turli sabab va turtkilarning turlari. Mehnat motivlari: Insonlar o'z vazifalarini, ishlari va loyihalarni bajarish uchun mehnat motivlariga ega bo'ladi. Bu motivlar, insonlarga ishlarini muvaffaqiyatli bajarish, maqsadlarni erishish va o'zlarini rivojlantirishni o'rganishda yordam beradi. Ijtimoiy aloqa motivlari: Insonlar ijtimoiy aloqalarni o'rnatish motivlariga ega bo'lib, boshqa insonlar bilan o'zaro munosabatlarni yaxshi o'rnatish va o'zlarini ijtimoiy jamoatda qatnashishini o'rganishda muhim o'rin tutadi. Bu motivlar, do'stlik, oila, do'stlar, jamoat va boshqalar bilan o'zaro munosabat qurish va o'zgaruvchanlik bilan boshqarishni, o'rganishni o'z ichiga oladi. O'zini rivojlantirish motivlari: Insonlar o'zlarini rivojlantirish va o'zlarini mustahkamlashni istaydilar. Bu motivlar, o'z bilim va ko'nikmalarini oshirish, yangi ma'naviy va jismoniy rivojlanishni talab qilish, o'zgaruvchanlikni qo'llab-quvvatlash va o'zini boshqarish qobiliyatlarini oshirishni o'rganishda muhim o'rin tutadi. Maqsadlar va yolg'onlar motivlari: Maqsad va yolg'onlarni aniqlash motivlari, insonlar o'zlarini boshqarish va amalga oshirishda ko'pincha ishlatadilar. Shu bilan birga, ularga o'zlarining erishmoqchi bo'lgan maqsadlarni belgilash, ularga qaratilgan vazifalarni bajarish va o'zlarini ilgari surish yordam beradi.

XULOSA:

Shaxsning faolligi, uning ehtiyoj va motivlari hamda faoliyat turlari o'zaro uzviy bog'liq tizimni tashkil etadi. Shaxsning ichki ehtiyojlari va motivlari uning qaror qabul qilish qobiliyati, maqsad sari intilishi va samarali faoliyat yuritishida markaziy rol o'ynaydi. Ichki va 3 moslashuvini taminlaydi. Ehtiyoj va motivlar shaxs rivoji va faoliyatining asosiy manbayi bo'lib, uning psixologik va amaliy samaradorligini belgilaydi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Maslow, A. H. (1943). A Theory of Human Motivatsion. Psychological Review, 50(4), 307-396.[1].

2. Yadgorova.O.I; Tog'ayev.Sh.T.(2023).Psixologiya motivatsiya va motivlar tabiati va ularning hayotimizdagi roli. [2].
3. psixologiyada motivatsiya va motivlar tabiyati va ularning roli - O.I.Yadgorova; Sh.T. Tag'ayeva.[3].
4. G'oziyev E. G'. Umumiy psixologiya 1-2-kitob.-T.:2002. -
5. Maslov, A. H. (1943). Inson motivatsiyasi nazariyasi.Psychological Review, 50(4), 370–396.
6. Ryan, R. M., & Deci, E. L. (2000). O'z-o'zini belgilash nazariyasi va ichki motivatsiya. American Psychologist, 55(1), 68–78.
7. Vygotskiy, L. S. (1978). Jamiyatdagi ong: Yuqori psixologik jarayonlarning rivojlanishi. Harvard University Press.
8. Severyuk, N. G. (2010). Motivatsiya psixologiyasi va shaxsiy rivojlanish. Moskva: Akademiya.